

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA INNOVATSION O‘QITISH USULLARIDAN FOYDALANISH

Azimova Hayotxon Jaloldinovna

Andijon viloyati Oltinko‘l tumani 28- maktab boshlang‘ich fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim tizimida zamonaviy o‘qitish usullaridan foydalanish, ta‘lim samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarning ahamiyat va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda zamonaviy innovatsion metodlardan foydalanish to‘g‘risida batafsil bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, zamonaviy o‘qitish usullari, axborot texnologiyalari, zamonaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar.

Kirish: Ma‘lumki, ta‘lim tizimiga zamonaviy yondashuv ta‘lim jarayonini aniq vositalar orqali samarali boshqarish va qo‘yilgan o‘quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim sifat samaradorligini yanada takomillashtirishda zamonaviy yondashuv –vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan, shuningdek kutilgan natijaga erishishni ta‘minlovchi pedagogik jarayonning hamma bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Ta‘lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma‘lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o‘quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo‘yicha belgilangan maqsadlarga mos ravishda tanlangan o‘qitish metodlari orqali tashkil qilish demakdir. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra, ma‘lum pedagogik nazariyaga asoslangan, u yoki bu tasnifga aloqador bo‘ladi. Ularning samaradorligi haqida fikr yuritilganda o‘qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo‘naltira oladigan, o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta‘minlash hamma ta‘lim muassasalarining oldiga

qo'yilayotgan maqsadga qanchalik erishilayotganini nazarda tutish lozim. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash, shuningdek darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar yordamida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik, shuningdek axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida tashkil qilinishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Boshlang'ich maktabda turli darslarda zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish o'qitishning ko'rgazmali-tasvirli-tushuntirish uslubidan faoliyatli uslubga o'tishga imkoniyat yaratadi, bunda o'quvchi o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga, sub'ektiga aylanadi. Bu esa o'quvchida bilimni tushungan ravishda o'zlashtirishga imkon beradi. Shu sababdan ham zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinflarda kompyuter texnologiyalarini qo'llab dars jarayonini tashkil etish ijodkor, novator pedagoglar tomonidan amalga oshirilmoqda, bu esa ko'pchilik pedagoglarning hayotiy ish normasiga aylanib bormoqda.

Natijalar: Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil etish va amaliyotga joriy qilish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani tufayli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal takomillashib borishiga ko'proq e'tibor qaratish darkor. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. O'quvchilarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda rivojlanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini belgilab beradi. Pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil qilingan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi zarur. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. Ta'lim tizimida innovatsion deyilganda, ta'lim maqsadi va mohiyatiga yangilik kiritish, yangicha yondashish, pedagog va talabaning hamkorligidagi faoliyatini tashkil qilish, pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish jarayoni, ta'limning uslub, shakl va vositalarining majmuasi tushuniladi.

Muhokama: Boshlang'ich ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar hamda axborot texnologiyalari bilim olish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Axborot texnologiyalari asosida tashkil qilingan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi lozim. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish yordamida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishishning muhim shartlari: zamonaviy ta'lim usullaridan bo'lgan ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, eng oxirgi ta'lim vositalarini qo'llash, shuningdek mazkur jarayon samaradorligini oshirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yuqori metodik kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlarini ta'minlashdan iborat. Masofali ta'lim o'qitishning zamonaviy shakllaridan biri sifatida ta'lim tizimining hamma sohalarida o'z o'rnini topmoqda.

Xulosa: Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligini belgilash, ta'lim jarayonida bunday texnologiyalarni qo'llashning eng asosiy ko'rsatkichlaridan sanaladi. Bu sohada erishilayotgan yutuqlarni hisobga olib, kompyuter texnologiyasini quyidagi jihatlarda ta'lim muassasasi umumiy faoliyati jarayonlarida qo'llash samarali bo'lishini ta'kidlash zarur. Boshlang'ich ta'limni axborotlashtirishning istiqbolli yo'nalishlari zamonaviy telekommunikatsiya vositalari va tarmoqli axborot texnologiyalaridan foydalanishni bildiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ismatova Sh. B. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari". - "Science and education" scientific Journal, 2020.
2. Umarova M. R. "Boshlang'ich ta'limda AKTdan foydalanish ahamiyati". – "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy jurnali, 2022.
3. Bekmurodova J.A. Boshlang'ich sinflarda o'quv materiallarining o'ziga xos xususiyatlari - 2020.
4. Qurbonova, M., & Qorayev, S. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish. Academic Research in Educational Sciences, 2020.